

1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. Qaysi qatorda bog'langan qo'shma gap berilgan?
- A) Dono aybni o'zidan axtaradi, ahmoq bo'lsa do'stini ayblaydi.
B) G'ayratlining yuragi qaynar, G'ayratsizning yuragi o'ynar.
C) Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r – mingni.
D) Jahl kelsa, aql ketadi.
2. Qaysi javobda berilgan so'zlar o'zaro ma'nodosh emas?
- A) malomat, gina
B) g'urur, shuur
C) saxiylik, tantilik
D) iroda, qat'iyat
3. Ajratib yoziladigan qo'shma so'zlar qatorini toping.
- A) xush/bo'y, tog'ma/tog'
B) to'g'ridan/to'g'ri, jiqqa/ho'l
C) sotib/oldi, borib/keldi
D) tog'/olcha, beda/poya
4. Qaysi gapda orttirma nisbatdagi fe'l qo'llangan?
- A) Bu cholni butun yurt izzat qilardi.
B) Nazir ota yuzlarida tabassum bilan qutini bezata boshladi.
C) O'zingdan o'zgadan marhamat kutma, o'zbek o'g'li, o'zligingni unutma.
D) Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqar.
5. Qaysi so'zda bo'g'iz undoshi ishlatiladi?
- A) ...ayol
B) ...arita
C) ...alq
D) ...abash
6. Xojaning hikoyalaridan birida sultonning bir soat adolat qilganining savobini zohid qanchaga baholaydi?

- A) odamlar, farishtalar va hurlarning ibodatidan ortiq
B) yigirmata zohid ibodatidan ortiq
C) o'nta payg'ambarning ibodatidan ortiq
D) o'nta avliyoning ibodatidan ortiq

7. Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa"si qanday nom bilan mashhur bo'lgan?

- A) "Panj ganj" ("Besh xazina")
B) "Haft paykar" ("Yetti go'zal")
C) "Xamsa" ("Beshlik")
D) "Maxzan ul-asror" ("Sirlar xazinasini")

8. *Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi, Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi. Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi, oh, G'urbatda sevinmas emish, albatta, kishi.*

Ushbu ruboiydagi radifni aniqlang.

- A) g'urbatda, mehnatda, albatta
B) kishi
C) yod, shod
D) kishini, ko'ngulni

9. *Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo'ldi.*

Ushbu gapning tuzilishiga ko'ra turini aniqlang.

- A) sodda gap
B) qo'shma gap
C) darak gap
D) egasiz gap

10. Gapdagi ko'p nuqta o'rniga mazmun va grammatik jihatdan mos keluvchi yordamchi so'zni qo'ying.

Vatanimiz poytaxtida, ... Toshkentda diqqatga sazovor joylar ko'p.

- A) chunki
B) xullas
C) ya'ni
D) garchi



2-qism: Har bir topshiriq 1,5 ballan baholanadi

11. Faqat sof ko'makchi(lar) ishtirok etgan gapni aniqlang.

A) Mening ko'nglim sezgan edi, shu sababli tushlikni chala-chulpa qilib uy tomon yugurgan edim.

B) Shundan so'ng mening niyatlarim kun sayin orqaga ketayotganini his qila boshladim.

C) Ona urug'im haqida boshqa narsani bilmayman, bilganim shuki, onamlar siz kabi bo'lishni xush ko'radilar.

D) Palataga kirib borganim sari meni vahima bosardi, shuning uchun eshikni ochishdan avval biroz to'xtab qoldim.

12. *To'rt narsani berdi menga oqillarcha o'ylamoq:*

Tansihatlik, yaxshi odat, yaxshi nom, yaxshi fikr.

Ushbu she'riy parchada so'z yasovchi qo'shimchalar vositasida qaysi turkumlarga oid so'zlar yasalgan?

A) ot, sifat, fe'l

B) sifat, fe'l

C) ot, sifat

D) ot, ravish, fe'l

13. Sifatning ma'nosiga ko'ra ikki turi ishtirok etgan gapni aniqlang.

A) O'ziyam juda g'alati odam, sergapmi, kamgapmi, bilib bo'lmaydi.

B) Baqqol amaki yuzi katta, peshonasi keng, iyagi kalta odam.

C) Yo'ning ikki betidagi qoramtir, oq, qizil daraxtlarning barglari iliq quyosh nurida marvariddek tovlanadi.

D) Bu bog'lar ichida oq, havorang marmardan qurilgan chiroyli binolar, ko'shklar, kichik-kichik saroylar ko'zga tashlanadi.

14. Ko'makchili qurilma yordamida bog'langan ergashgan qo'shma gapni aniqlang.

A) Fikr ravshan bo'lsa, albatta, uning shakli ham ravshan bo'ladi.

B) Haqiqiy olim o'zining ilmi bilan maqtanmaydi, chunki u o'zidan ham zo'r olim va fozil borligini biladi.

C) Shuni bilki, odamlar do'stlik tufayli baxtiyordir.

D) Do'stlikdan o'tadigan hech narsa yo'q, shuning uchun do'st orttirish imkoniyatini sira qo'ldan boy berma.

15. *Ona qishloq, Vatan deb faxrlanganimizda, biz, avvalo, poyonsiz dalalaringni, yam-yashil bog'rog'laringni, anhorlaringda sharaqlab oqqan suvlaringni, subhidamdan bo'stonlaringda muhabbatdan roz aytib, navo bazmini boshlagan bulbullaringni o'ylaymiz.*

Ushbu gap...?

1) undalmali gap;

2) kiritmali gap;

3) uyushiq bo'lakli gap;

4) ajratilgan bo'lakli gap;

5) qo'shma gap.

A) 1, 2, 3, 4

B) 1, 2, 3, 5

C) 1, 2, 3, 4, 5

D) 1, 2, 3

16. "Alpomish" dostonida Barchin qachon "Saman otli, sarjig'ali bek yigit"ga murojaat qiladi?

A) shartlarini qo'yayotganda

B) olti oyga muhlat so'rayotganda

C) kurash paytida

D) tush ko'rganda

17. Qaysi asarda shoir shohga qarata: "Raiyat (xalq) poda bo'lsa, sen cho'ponsan, u mevali daraxt bo'lsa, sen - bog'bon, agar cho'pon qo'ylarini asramasa, ular och bo'rilarga yem bo'ladi", degan fikrni aytadi?

A) "Hayrat ul-abror"

B) "Farhod va Shirin"

C) "Layli va Majnun"

D) "Saddi Iskandariy"



18. Jomiyning “Xamsa”si yettilik bo‘lgandan so‘ng qanday nomlangan?

- A) “Haft paykar”
- B) “Haft avrang”
- C) “Hasht behisht”
- D) “Silsilat uz-zahab”

19.



Ushbu qolipga mos keladigan ergashgan qo‘shma gapni aniqlang.

- A) Ikkinchi masala ancha jiddiy, shuning uchun u ancha o‘rganishni talab qiladi.
- B) Dalalarga chiqing, bahri dilingiz ochilsa, quvvatga kirib ketasiz.
- C) Darrov suhbatimizga jon kirdi, chunki oramizda bilag‘on Salim ham bor edi.
- D) Hayotimda kim uchundir foydali inson bo‘lsam, bu mening eng katta yutug‘imdir.

20. *Tokzorga kelsak, husayni, shivirg‘oni, charosdan boshlab tanako‘zi, qorajangal, bedona kishmishga qadar turli-tuman navlar bor.*

Ushbu gapdagi sodda yasama ot turdosh otning qaysi turiga mansub?

- A) narsa oti
- B) shaxs oti
- C) faoliyat-jarayon oti
- D) o‘rin-joy oti

3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi

21. Imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini aniqlang.

- A) tatqiqot, mabodo, tavsiya
- B) poyafzal, tomosha, tomoman
- C) hasharot, yutinmoq, fojia
- D) hayriyat, burilmoq, mas‘ud

22. Qaysi gapda otlashgan sifat bilan ifodalangan uyushiq ega mavjud?

- A) Hayotda yaxshi ta‘lim olgan va uni amalda qo‘llay bilganlar hech qachon qoqilmaydilar.
- B) Dono olg‘a boraturib, orqaga qarab qo‘yadi.
- C) Nodon aytur: g‘olib chiqdim, dono aytur: yo‘l berdim.
- D) Dangasa va yalqovlar hech qachon sanoqda bo‘lmaydi.

23. *Ayniqsa, har bir odam o‘zining oqil, obro‘-e‘tiborli. iste‘dodli, sadoqatli do‘stlari – safdoshlari bilan faxrlanadi, ammo do‘stlik mezonini faqat shular bilan o‘lchanmaydi.*

Ushbu gap haqidagi to‘g‘ri hukmni toping.

- A) Egalar har xil so‘z turkumi bilan ifodalangan.
- B) Ham ot kesim, ham fe‘l kesim mavjud.
- C) Ham uyushiq bo‘lak, ham ajratilgan bo‘lak ishtirok etgan.
- D) Biriktiruv munosabatli bog‘langan qo‘shma gap hisoblanadi.

24. Berilgan gaplar va ularda ishtirok etgan fe‘l shakllari to‘g‘ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

1. Zebi yuragida tugilib yotgan zo‘r tugunni yechib yuborgan edi.	a)ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmasi; b)qo‘shma fe‘l; d)nisbat qo‘shimchasini olgan fe‘l;
2. Ufqlarda sayr etgin mudom. Quyosh kelib suvga cho‘kkanda.	e)sof fe‘l shaklidagi fe‘l; f)sifatdosh shaklidagi fe‘l; g) ravishdosh shaklidagi fe‘l.

- A) 1-a, b, d, f, g; 2-b, e, g
- B) 1-a, d, e, f; 2-b, e, f, g
- C) 1-a, d, f, g; 2-a, e, f, g
- D) 1-a, e, f; 2-a, b, e, g



25. Quyida berilgan soʻzlarni maʼnolari bilan birlashtiring.

1) mezon;	a) poydevor;
2) tamal toshi;	b) qiyoslash, solishtirish;
3) maʼrifat;	d) moslash, toʻgʻrilash;
4) kurant;	e) oʻlchov;
5) muqoyasa.	f) bilim, fan; maʼlumot, tanishish;
	g) minoraga oʻrnatilgan soat;
	h) boshqaruvchi, toʻgʻri yoʻlga soluvchi;
	i) kuz fasli.

- A) 1-i, 2-e, 3-f, 4-h, 5-d
B) 1-e, 2-a, 3-f, 4-h, 5-b
C) 1-i, 2-a, 3-h, 4-g, 5-b
D) 1-e, 2-a, 3-f, 4-g, 5-b

26. *Mehmondoʻst, mehnatsevar xalqimizga mos boʻlgan sofdil, mard va vatanparvar yoshlar ertamiz egalaridir.*

Ushbu gapda qatnashgan yasama soʻzlar haqida berilgan toʻgʻri fikrni toping.

- A) Yasama soʻzlar bir xil gap boʻlagi vazifasini bajargan.
B) Yasama soʻzlar tuzilishiga koʻra bir turga mansub.
C) Yasama soʻzlar bir xil gap boʻlagiga tobelangan.
D) Yasama soʻzlar oʻzi bogʻlangan soʻzlarga ohang va kelishik yordamida tobelangan.

27. Navoiyning “Farhod va Shirin” dosoni haqidagi qaysi fikr notoʻgʻri?

- A) Farhod Shirinni topish uchun uch manzildan oʻtadi va Yunonistonga boradi.
B) Farhod tugʻilganida xoqon xalqning uch yillik xirojidan kechadi.
C) Farhod onadan ishq bilan tugʻiladi.
D) Farhod Qorandan tosh yoʻnish sirlarini oʻrganadi.

28. *Shabistonida tugʻdi bir yangi oy.*

Yangi oy yoʻlqi, mehri olamoroy.

Ushbu sheʼriy parchada ajratib koʻrsatilgan soʻz qaysi badiiy sanʼatni yuzaga keltirmoqda.

- A) iyhom
B) istiora
C) tajnis
D) talmeh

29. *Gar nuktalari jahonni tutti,*

Gʻavgʻolari ins-u jonni tutti.

Chun forsiy erdi nukta shavqi,

Ozroq edi anda turk zavqi.

Navoiy “Layli va Majnun” dostonining xotimasidan olingan ushbu parchada kimlarni taʼriflamoqda?

- A) Jomiy va Lutfiy
B) Husayn Boyqaro va temuriylar
C) Nizomiy va Dehlaviy
D) Saʼdiy va Farididdin Attor

30. Quyidagi gapda tushirib qoldirilgan tinish belgilarining toʻgʻri ketma-ketligini aniqlang.

Insonni butun borliq odamlar buyum va narsalar voqea-hodisalar ammo eng avvalo va aksar hollarda odamlar tarbiyalaydi

- A) : , , , , , .
B) , , , , , .
C) – , , , , .
D) – – , , , .

